

**VATANPARVARLIK TUYG'USINI TARKIB TOPTIRISHDA
QO'LLANILADIGAN USULLAR VA VOSITALAR**

МЕТОДЫ И СРЕДСТВА ФОРМИРОВАНИЯ ЧУВСТВА ПАТРИОТИЗМА

METHODS AND MEANS USED IN FORMING A SENSE OF PATRIOTISM

G'ovsiddinova Nozanin Sunnatullo qizi

Jamoat xavsizligi universiteti

“Harbiy vatanparvarlik, ma’naviy-ma’rifiy

tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy

ishlash” kafedirasi 1-kurs magistranti

el-pochta: nozaningovsiddinova@gmail.com

tel : +9989336622024

Annotatsiya: Ushbu maqolada vatanparvarlik tuyg'usini shakllantrishning pedagogik va psixologik uslublari ,metodikalari , uslibiy ketma ketliklar ,takliflar , yondashuvlar va mulohazalar yuritilgan.

Kalit soʻzlar: yoshlar, mas'uliyatlilik, ma'naviy-axloqiy, vatanparvarlik burchi, Amir Temur , YUNESKO, Shaxs so'rovnomasi ,texnologiyalar , yondashuvlar, ta'lim -tarbiya , axloqiy , psixologik .

Аннотация: В статье рассматриваются педагогические и психологические методы, методики, методические последовательности, предложения, подходы и соображения по формированию чувства патриотизма.

Ключевые слова: молодёжь, ответственность, духовно-нравственный, патриотический долг, Амир Темур, ЮНЕСКО, опросник личности, технологии, подходы, воспитание, нравственность, психология.

Abstract: This article discusses pedagogical and psychological methods, methodologies, methodological sequences, proposals, approaches and considerations for the formation of a sense of patriotism.

Keywords: youth, responsibility, spiritual and moral, patriotic duty, Amir Temur, UNESCO, Personality questionnaire, technologies, approaches, education, moral, psychological.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash yo'lida ijobiy ishlar ko'plab amalga oshirilgan bo'lsada biroq, bu borada hal etilishi zarur bo'lgan masalalar ham mavjud, chunonchi, yoshlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga oid tajribalarining yetarlicha o'rganilmaganligi; shuningdek,

yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda shaxsning individual xususiyatlariga yetarlicha mustaqil tadqiqot sifatida tadqiq etilmaganligi tadqiqot muammosining dolzarbligini asoslaydi. Shunday ekan shaxsning individual xususiyatlari va irodaviy sifatlari vatanparvarlik tuyg'usini yuqori darajada shakllantrish uchun qay darajada bo'lishini ilmiy asoslar bilan isbotlab beradigan va ilmiy tadqiqotning asosini ochib beradigan jihati bu tadqiqotda qo'llaniladigan usullar va vositalardir .

Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mexanizmlari harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy komponentlari haqida pedagog va psixolog olimlarimiz quydagicha taklif va mulohazalar yuritishgan . Yoshlarni harbiy vatanparvarlik tarbiyasi jarayonining ishlab chiqilgan modeli zarurat va yetarlilik xususiyatlariga ega bo'lgan pedagogik sharoitlar to'plamini yaratish orqali muvaffaqiyatli amalga oshirilishi yo'llaridan biri dars va darsdan tashqari tarbiyaviy jarayonlarda ma'naviy sog'lom muhitni yaratishdan iborat.

Zero, insoniyat jamiyatda moddiy va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarish, tabiat va uning oliy mavjudoti bo'lmish inson tafakkurida amal qiladigan qonuniyatlarni bilish, olam haqidagi bilimlarni yosh avlodga o'rgatish hamda takomillashtirish bilan rivojlanib boradi. Demak, o'qituvchi insoniyat jamiyati tomonidan tarixiy taraqqiyot davomida to'plagan ijtimoiy tajribasini yosh avlod tomonidan o'zlashtirib, uni yanada takomillashishida bevosita vorislikni ta'min etadi.

Insoniyat jamiyatini tinch, farovon yashashi uchun fan-texnika yutuqlari, ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalaridan omilkorlik bilan foydalanish lozimligini hayotning o'zi taqozo etadi. Bu o'z navbatida har bir obyekt (buyum, predmet, hodisa, jarayon, tirik mavjudot)ni har tomonlama chuqur va puxta o'rganishni talab etadi.


Nazariy o'rganish, yoshlarni faoliyatini kuzatish, ta'lim mazmuni bilan tanishish orqali yoshlarni quyidagi sifatlarni samarali o'zlashtirishi zarurligi aniqlandigan

- ma'naviy-axloqiy sifatlari-harbiy vatanparvarlik,
- mehnatsevarlik,
- fidokorlik,
- e'tiqodlilik,
- adolatparvarlik,
- vijdonlilik,
- davlat siyosatining to'g'riligi va o'z kuchiga bo'lgan ishonchga egalik,
- do'stlik tuyg'usiga egalik,
- tinchlik va adolat uchun kurashuvchanlik,
- bag'rikenglik,
- mas'uliyatlilik, insoniylik,
- insonparvarlik,

- milliy tarixga hurmat ko'rsatish,
- ijobiy milliy xususiyatlar (mehmondo'stlik, jamoaviylik, saxiylik, olijanoblik va boshqalar)ga sodiqlik,
- jamo'a ishlarida faol qatnashish,
- ijtimoiy topshiriqlarni bajarish, liderlik, o'z oilasi, ta'lim muassasasi hamda o'zi mansub bo'lgan akademik guruh sha'nini himoya qilish,
- jamo'a obro'si uchun kurashish,
- intizomlilik;
- jismoniy sifatlar- jismonan sog'lomlik, jismonan yetuklik, harakatchanlik, jismoniy madaniyat va sog'lom turmush tarziga ega bo'lish. ¹

Ko'rib turganimizdek tadqiqotlar asosiyda olimlarimiz quydagi ketma ket tarbiyalash andozasini taklif berishgan.

Harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoni ketma ketligi



¹ Botirov Ilhom Saydullayevich PhD dissertatsiya "Umumiy o'rta ta'lim maktablari va litsey o'quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash texnologiyasi ("Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi" asosida)"UDK:37.046.14;371/378 2023y

olimlar tomonidan o'quvchilar ongi hamda qalbiga singdirish uchun o'qituvchi yuksak mahoratga va ko'p tomonlama bilimga ga bo'lishi kerak, deb bilgan holda, bu sohaga oid bilimlarni berishda Abu Rayhon Beruniyning "Rang-barang bog'lar" interaktiv usulidan foydalanish katta samara beradi, deb topganlar. Ular ushbu interaktiv usulga ko'ra, o'qituvchi biron bir mavzuni tushuntirayotanda u haqdagina ma'lumot beribgina qolmay, u bilan bog'liq ko'plab, ya'ni har tomonlama ma'lumotlar berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarni haqiqiy vatanparvar qilib tarbiyalashning yana bir muhim e'tiborli jihati shu'ki madaniy yodgorliklarni saqlab qolish uchun xalqaro tashkilot YuNESKOning vazifalari haqida qisqa ma'lumot bergan holda har bir shaxs hatto mamlakatlar o'rtasida o'zaro urushlar bo'lgan taqdirda ham ularni vayronaga aylantirmaslik haqida Xalqaro huquq normalari, ya'ni Qurolli to'qnashuvlar huquqi mavjudligini tushunib bersa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ushbu yo'l bilan Amir Temur shaxsiga nisbatan bo'lib o'tgan voqealarga yangicha talqin berishga olib kelish mumkin. Masalan, uning har qanday mansabdorga xos bo'lishi mumkin bo'lgan kibrdan yiroq bo'lishi, adolatni o'zining yo'ldoshi deb bilishi, kambag'allarga beg'araz yordam ko'rsatishi kabi holatlar uni go'zal xislatlarga ega bo'lgan tarixiy shaxs ekanligini ko'rsatadi. Shu sabab bo'lsa kerak, jahon olimlari, tarixchi va yozuvchilarini diqqatini Temur shaxsi hamon o'ziga tortib, unga yangidan-yangi ta'riflar berilmoqda. Bizning mavzumizga oid holtalar ham Amir Temurning harbiy harkatlarida juda ko'plab uchragan. Uning o'zi alohida tadqiqni talab etadi.

Yuqorida ko'rib o'tdikanimizdek pedagoglar va tarixiy manbalar asosida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning o'ziga xos tartib va usullari keltirib o'tilgan. Psixologik nuqtai nazardan esa quydagi uslublardan foydalanish aniq ma'lumot va yo'nalish beradi.

1.Mak Krae va P. Kosta " Katta beshlik" so'rovnomasi

2.R.B.Kettelning 16-faktorli shaxs so'rovnomasi .

3.N.N. Obozov "Iroda kuchini aniqlash " testi Jumladan ushbu so'rovnomalar orqali shaxs xususiyatlarini o'rganish va nazorat va tajriba guruhi asosida o'rganish zarur . Kiyingi ilmiy maqolalarda natijalar taxlili asosida taqdim etish rejalashtirilgan . O'smir va O'spirinlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tamoyillarini quydagicha tasniflashimiz mumkun .

Texnologiyalar: etnopedagogik, refleksiv,

Yondashuvlar: atrof muhitli, tizimlashxsga yo'naltirilgan, ijtimoiy-psixologik, faoliyatli, aksiologik va madaniy. Ta'limiy, axborot-ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy

Innovatsion: Trip to the Future (Kelajakka moslashuvchanlik: muvofiqlik va yaxlitlik, darajalash , ochiqlik , sayohat)

Psixologik:

-Motivatsion

-Kognitiv

-Aqliy, ahloqiy

Rivojlantiruvchi muhitni tashkil qilish: Ta'lim-tarbiya jarayonini darajalash; Faoliyatni o'zaro munosabatda takomillashtirish; Faoliyatning jarayonga va natijalariga subektiv ahamiyat .

Amaliy-yo'naltirilgan vositalar: Harbiylar va sportchi yoshlar ,o'quvchilarning bir-biri bilan aloqalari; O'z-o'zini baholashning shaxsga yo'naltirilgan vositalari, refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirish

Xulosa qilib shuni ta'kidlab aytamanki tadqiqot olib borishning zarur va samarali jixatlari mavjud . Ammo tadqiqot samarali va nazorat asosida olib boorish va eng muhim natijalarni to'g'ri taxlil qilish kerk. Umumiy o'rta talim maktablari va sport maktablari vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlarini tizimli yo'lga qo'yish lozim , shuningdek, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir elektiv psixologik kurslarni ishlab chiqish zarur. Har bir tadqiqotni avvalo bosqichma bosqich tashkil qilish va vatanparvarlik ruhini shakllantrish psixologik mexanizmlarini ochib berish va bu natijalarni amaliy ijrosini qonun bilan biriktrish muhim hisoblanadi .

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Botirov Ilhom Saydullayevich PhD dessertatsiya “Umumiy o'rta ta'lim maktablari va litsey o'quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash texnologiyasi (“Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi” asosida)”UDK:37.046.14;371/378 2023y
2. Z.Nishonova , Z.Qurbonova , S.Abdieva “Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya” . “TAFAKKUR-BO'STONI ” Toshkent -2011
3. Temur tuzuklari T., G' G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1996.
4. E.G'oziyev. Ontonagenez psixologiyasi . “NOSHIR”Toshkent 2010.
5. Sh.SH. Xudayberganov, X.O' . Bekchanov, G/O.Sharipova , G.A.Maryakubova , G.B.Gulyamova “Ilmiy tadqiqot metadalogiyasi” darslik . Toshkent 2024-yil.